Qo'ldosh Pardayev

# ADABIY MANBALAR BILAN ISHLASH AMALIYOTI

O'quv qo'llanma

UO'K: 37.026:811.512.133(075.8)
KBK: 81.2O'zb
P 21

ISBN 978-9943-8627-7-7

Pardayev, Qo'ldosh
Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti [Matn] : o'quv qo'llanma / Q. Pardayev. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 110 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy hayoti va adabiy merosi qo'lyozma va toshbosma manbalar, arxiv hujjatlari asosida o'rganilgan. Ijodkorning katta hajmdagi lirik va hajviy asarlari sho'rolar zamonida g'oyaviy tahrirdan o'tkazilib, asliyatdan yiroqlashtirilgani aniqlanib, birlamchi manbalar asosida ishonchli matnlari tiklangan. Yangicha nuqtai nazar, quvvatli ilmiy tahlil asosida xolis ilmiy xulosalar chiqarilgan Muqimiy she'riy asarlari qo'lyozma va toshbosma manbalari hamda nashr nusxalari qiyosiy tahlil etilgan va Muqimiy ijodi haqida yangicha mulohaza yuritilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining 70230301–Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasidagi Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Undan mazkur mutaxassislik magistrantlari hamda oliy ta'lim muassasalari 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishidagi Matnshunoslik, Matn tahriri fanlarida ham foydalanishi mumkin.

**Mas'ul muharrir:**
**Nurboy Jabborov** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**
**Adiba Davlatova** – TVCHDPU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
**Zilola Shukurova** – TDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan

© Pardayev Q.
© "Bookmany print" nashriyoti, 2022.

# KIRISH

Jahon madaniyati va adabiy-estetik tafakkuri rivojida matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi muhim o'rin tutadi. Asrlar davomida saqlanib kelayotgan turli davrlarga mansub ko'hna manbalarni o'rganish, ulardan jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish dolzarb vazifalardandir. Qo'lyozma manbalar tahlili va talqini muayyan ijodkor adabiy merosiga oid ilmiy haqiqatlarni aniqlash imkonini berishi jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Matnshunoslik va manbashunoslik ilmida matn tarixi va tahriri masalasi tadqiq etilishi zarur bo'lgan asosiy ilmiy muammolardandir. Matn tarixi shoir ijod laboratoriyasi, matn yuzaga kelishi jaryonidagi maqsad va rejalardan tortib, matnning hozirgi davrdagi holatigacha bo'lgan o'zgarishlarni o'zida jamlagani uchun bu masalani o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Matn tahriri masalasi matnning takomil bosqichlarini aks ettirishi jihatidan ham muhim ilmiy muammolardan. Dunyo matnshunosligida badiiy matn tahriri ancha chuqur o'rganilgani holda mamlakatimizda yetarli darajada tadqiq etilgan emas. Bu fikrlarni Muqimiy ijodiga nisbatan ham aytish mumkin.

Mustaqillik davri matnshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan ma'rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, biroq bu davr adabiyotida tadqiqotchilarini kutayotgan adabiy manbalar talaygina ekani ham ayni haqiqatdir. Bu orqali «...Avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan»[1]. Ana shunday ijodkorlardan biri Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy hayoti va ijodiy merosi kommunistik mafkura sharoitida xolis va to'laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham monografik tarzda qayta o'rganilgan emas. Shu bois Muqimiy she'riyati qo'lyozmalarini qiyosiy-matniy

[1] Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4 август.

| | | | | Jami: 11 bayt | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Sayohatnoma | | | | |
| 1. | Qo‘qondan Shohimardonga | 30 | | 10 | 6352 raqamli qo‘lyozma bayoz |
| 2. | Qo‘qondan Farg‘onaga | 15 | | 5 | 6352 raqamli qo‘lyozma bayoz |
| 3. | Isfara sayohatidan | 11 | | 1 | H.Zarifov qo‘lga kiritgan alohida varaq |
| | | | | Jami: 16 band | |



## MUNDARIJA

**Kirish** ... 3
Muqimiy hayoti va ijodiga oid ilk manbalar tahlili ... 5
Muqimiy she’riy asarlari qo‘lyozma manbalarining qiyosiy tahlili ... 15
Muqimiy she’riy asarlarining toshbosma manbalarda va shaxsiy arxivlarda saqlanishi ... 32
Muqimiyning “Sayohatnoma” asari: matn tarixi muammosi ... 39
Muqimiy she’riyati matnida “g‘oyaviy” va “kotib” tahririning ilmiy tasnifi va tahlil ... 51
Muqimiy ijodida muallif tahriri masalasi ... 70
**Xulosa** ... 84
**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati** ... 87
**Test topshiriqlari** ... 94
**Ilova** ... 103